



DAUN SINDROMI KELIB CHIQISH SABABLARI

Xojiboyeva Dinora Bahtiyor qizi

Toshkent kimyo xalqaro universiteti

Maxsus pedagogika yo'nalishi 2- bosqich talabasi

Anatotsiya : *Ushbu maqolada daun sindromining kelib chiqishi ,daun sindromli bolalar nima sabablarga ko'ra tug'ilishi va daun sindromini belgilari .*

Kalit so'zlar : *Daun , xromosoma , trisomiya , hujayra , alkogolizm , nazkamaniya , gemalitik , toksaplazmoliz ,ribella, skarlatina , Shershevskiy – Turner.*

KIRISH: Daun sindromi-xromosoma kassalligi bo'lib, 21-autosomalar trisomiya bo'lishi, hujayra kariotipidagi xromosomalar 46 ta bo'lish o'rniga, 47 ta bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bu kassallikga uni aniqlagan ingliz olimi Djon Daun nomi berilgan. Lekin kasallik tug'ma, xromosoma soninig o'zgarishi natijasida kelib chiqishini 1959-yil fransuz olimi Jeromom Lejenom aniqlagan. Bu kassalik 700 boladan 1 tassida uchraydi. Perinatal diagnostika natijasida bo'lib 1100 : 1 ga kamaydi. Agar ona 20-24 yosh bo'lsa, 1562:1,30 yoshgacha ayollardan 1000:1, 35-39 yosh 214:1,40 yoshdan oshgan onalardan 19:1 nisbatta kasal bolalar tug'iladi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra otaning yoshi ham kassalik kelib chiqishida muhim o'rin tutadi. 42 yoshdan oshgan erkaklarda Daun sindromli bola tug'ilish xavfi ortadi.

ASOSIY QISM : Daun sindromini keltirib chiqaruvchi sabablar

1. Onaning zararli odatlarga ruju qo'ygani (alkogolizm, narkomaniya, tamaki chekish), ayol va bolani qon rezus omilini to'g'ri kelmasligi.
2. (Gemalitik), qarindosh- urug' nikohi, ona homiladorlik davrida o'tkir yuqumli kassalliklar bilan kassallanishi (toksaplazmoliz ,ribella, skarlatina, qizilcha , ganareya).
- Dorilarni noto'g'ri qabul qilish kabi sabablarni ko'rsatish mumkin bo'ladi .

Daun sindromining belgilari :

1. psixomotor, jismoniy rivojlanishning kechikishi;
aqliy zaiflik;
2. mushak tonusining pasayishi yoki yomonlashishi;
3. qisqa bo'yin, bo'yinning orqa qismida ortiqcha terisi mavjudligi;
4. yassi yuz va burun qansharining yassiligi;
5. kichik bosh, quloq va og'iz;
6. ko'krak qafasining deformatsiyasi;
7. ko'zlar yuqoriga egilgan, ko'pincha yuqori ko'z qovog'idan cho'zilgan va ko'zning ichki burchagini qoplaydigan teri burmasi bilan;
8. ko'z rangdor pardasining chetlarida dog'lar (brashfield dog'lari deb ataladi);
9. g'ilaylik;
9. ko'z gavharining xiralashishi;



10.og'izning ochiqqligi (muskul tonusining pastligi va tanglayning maxsus tuzilishi tufayli);

11.kattalashgan til;

12.o'rta falangalarning kam rivojlanganligi sababli barmoqlarning kaltaligi; bular daun sindromning belgilari bo'lib , bolalarda shunaqa belgilar kuzatilsa demak, bilishimiz kerakki bu daun sindromi hisoblanadi . Daun sindromi bo'lgan bolalarda jismoniy rivojlanish ko'pincha sog'lom bolalarga qaraganda sekinroq bo'ladi. Misol uchun, mushaklarning zaif tonusi tufayli Daun sindromi bo'lgan bola ag'darilish, o'tirish, turish va yurishni juda sekin o'rganadilar. Ushbu kechikishlarga qaramay, Daun sindromi bo'lgan bolalar boshqa bolalar kabi jismoniy mashqlar bajarishni o'rganishlari mumkin. Daun sindromi bo'lgan bolalarda barcha rivojlanish bosqichlaridan o'tishi uchun boshqa bolalarga qaraganda ko'proq vaqt talab qilinishi mumkin, ammo ular oxir-oqibat bu bosqichlarning ko'piga erishadilar.

Bu kasallikni davolab bo'lmaydi, lekin Daun sindromi bilan tug'ilgan bolaning rivojlanishini yaxshilash, jamiyatda o'z o'rnini egallashiga imkoniyat yaratish uchun unga maxsus jismoniy va ruhiy ko'mak ko'rsatilishi mumkin. Shuningdek quyidagilar tayinlanishi mumkin : nootrop dorilar; qon-tomir tizimi uchun dori vositalari.

Daun sindromi bilan tug'ilgan bola besh yoshga qadar jismonan, aqliy va lingvistik jihatdan qanchalik ko'p rivojlansa, kelajakda unga ham, ota-onasiga ham shunchalik oson bo'ladi. Daun sindromli bolani tarbiyalashda nimalarga e'tibor berish kerak?

Bunday bolalar psixologik jihatdan tengdoshlaridan orqada qoladilar;

Diqqatni bir joyda ushlab turish qobiliyati juda past;

Bola muntazam ravishda shifokor ko'rigidan o'tishi va kerakli muolajalarni olib turishi lozim;

Bola jismonan tengdoshlaridan orqada qoladi;

Daun sindromli bolasi bor ota-onalarni topish va ular bilan muloqot qilish har tomonlama yengillik keltiradi;

Daun sindromiga chalinganlar uchun ishlab chiqilgan maxsus reabilitatsiya dasturlarini topib, ishtirok etish tavsiya etiladi;

Boshqa bolalar bilan o'yin maydonchalariga, kafelarga, bog'larga borishni o'rganish yaxshi natija beradi;

Bola uyalmaslikni o'rganishi kerak;

Bolani jamiyatdan yashirmay, moddiy va ijtimoiy yordam so'ragan ma'qul; bunday bolalar dunyoga kelganida tushkunlikka tushmaslik lozim. Bunday bolalar, boshqa bolalar kabi, ota-onalarini juda yaxshi ko'radilar va ularning mehriga muhtoj bo'ladilar . Ularga qancha mehr e'tibor berilsa ularni shunchalik sizga bo'lgan mehri oshadi.

Xulosa : Ushbu maqola daun sindromi haqida bo'lib , daun sindromi xromosoma kasallik hisoblanadi . Daun sindromi haqida yuqorida bir qancha ma'lumotlar berib o'tilgan. Bu sindrom kech yoddagi homiladorlik yani 35 – 40 yoshdan keyin homilador



bo'lish oqibatida ko'roq yuzaga keladi . Bu kasallikni yuzaga kelishi faqatgina ayollarga emas erkaklarga ham bo'liq bo'ladi . Ko'pchilik onalarda daun sindromli bolalarni dunyoga keltirganda qo'rquv paydo bo'ladi va tushkinlikka tushishadi .

Bunday paytda tushkinlikka tushishning hojati yo'q chunki hozir meditsina judayam rivojlangan . Daun sindromini bartaraf qilishni iloji bo'lmasa ham yomon darajaga kelib qolmasligini oldini olish mumkin . Daun sindromiga chalingan bolalarni o'z o'ziga hizmat qilishni , ijtimoiy hayotga moslashishni oilada ham keyinchalik bog'cha va maktablarda ham o'rgatib tayyorlab borishimiz lozim . Bunday bolalar judayam beg'ubor bo'lishadi . Ularga qanchalik mehr bersak ularning shunchalik hayotga bo'lgan tasavvuri va qiziqishlari oshadi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://www.google.com/search?q=daun+sindromi+belgilari&rlz=1C1YTUH_ruUZ1067UZ1067&oq=daun+sin&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUqBwgCEAAYgAQyBwgAEAAYgAQyBggBEEUYOTIHCAIQABiABDIHCAMQABiABDIHCAQQLhiABDIHCAUQABiABDIHCAYQABiABDIHCacQABiABDIHCagQABiABDIHCAkQLhiABNIBCDMyODJqMGo3qAIAAsAI&sourceid=chrome&ie=UTF-8

2. <https://med24.uz/uz/bolezni/sindrom-dauna>